# INGLIZ TILI O‘QITISHDA AUTENTIK BADIIY MATNLARDAN FOYDALANISH: MA’NO VA TALQIN MEXANIZMLARI

**Raximova Gulshanoy Sharobidin qizi**
Farg’ona Ichki ishlar AL o’qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
https://orcid.org/0009-0005-9928-0747

***Annotatsiya***
*Quyidagi maqolada ingliz tili darslarida autentik badiiy matnlardan foydalanish hamda ularning ma’no (semantika) va talqin (interpretatsiya) mexanizmlari zamonaviy lingvopoetika, stilistika va diskurs tahlili yondashuvlari asosida chuqur o‘rganilgan. Tadqiqot real adabiy asarlar asosida olib borilib, stilistik vositalar orqali qanday ma’no hosil bo‘lishi hamda o‘quvchi tomonidan interpretatsiya (talqin) qilinish jarayoni tahlil qilingan. Maqolada mavjud bajarilgan ilmiy tadqiqotlar tanqidiy ko‘rib chiqilgan va xulosalangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *semantika, interpretatsiya, lingvopoetika, stilistika, diskurs, autentik badiiy matn*

## KIRISH

Zamonaviy pedagogikada badiiy matnni o‘rganish ko‘p bosqichli yondashuvni talab etadi. An’anaviy tadqiqotlarda asosan syujet va obrazlarga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda matndagi yashirin ma’no qatlamlari, semantik struktura va interpretativ mexanizmlar asosan diqqat markaziga chiqmoqda. Jumladan, filologlar G.Leech (2008) va P.Simpson (2004) olib borgan tadqiqotlarida badiiy matn stilistik vositalar orqali ko‘p qatlamli ma’no yaratishi ta’kidlanadi [1][2]. Boshqa bir tarafdan, tilshunos M.A.Hallidayning funksional lingvistik nazariyasiga ko‘ra esa, til – bu ma’no yaratish tizimi bo‘lib, kontekst bilan uzviy bog‘liq [3].


Yuqoridagi tadqiqotlarga qo’shimcha ravishda shuni xulosalash mumkinki, autentik ingliz badiiy matnlarida semantik va interpretativ mexanizmlarning integratsiyalashgan tahlili hali hanuz baxstalab mavzuligicha qolmoqda. Shunday ekan, mazkur tadqiqotimizda autentik ingliz badiiy matnlarida ma’no va talqin mexanizmlarini aniqlash va ularni dars jarayonida qo’llash maqsad qilindi va avvalgi izlanishlardan farqli o’laroq, semantika va interpretatsiya yagona model asosida o’rganildi, haqiqiy adabiy matnlar asosida kompleks tahlil olib borildi va lingvistik va adabiy yondashuv o’zaro integratsiya qilindi.

## METODOLOGIYA

Izlanishlar jarayonida real adabiy matnlar o’zida namoyon etgan ma’no hamda ularning o’quvchilar tomonidan qanday talqin etilishini aniqlash maqsadida turli metodlardan foydalanildi. Adabiy matnlardagi uslubiy jihat va ularning ma’no yuklayotgan ta’siri lingvostilistik tahlil yordamida aniqlangan bo’lsa, matnlarda yashiringan umumiy ma’no diskurs hamda kontekstual tahlil metodlari yordamida tadqiq qilindi. Interpretative yondashuv metodi esa, matnlarning talabalar ongida qanday gavdalanishi hamda talqin qilinishini tahlilga tortdi. Ushbu tahliliy metodlar chet adabiyotlaridan George Orwellning “1984”, Ernest Hemmingwayning “The Old

Man and the Sea” (“Chol va dengiz”) va Charles Dickensning “Great Expectations” (“Katta umidlar”) asarlaridan olingan parchalar asosoida amalga oshirildi.

Autentik badiiy matnlardagi asl ma’no hamda uni to’g’ri talqin qilinishini quyidagi model yordamida aniq tushunish mumkin:




***1-chizma.***

## NATIJALAR

Adabiy matnlardagi ko’zlangan ma’no turli semantik mexanizmlarni qo’llash orqali o’rganiladi. Ya’ni, stilistik vositalardan metafora matnda ko’chma ma’no yaratadi, simvol yashirin ma’no beradi va personifikatsiya esa jonlantiradi. Misol uchun:

- Metafora – “Big Brother is watching you” (“Katta aka seni kuzatyapti”)
- Simvol – “Sea – life struggle” (“Dengiz hayot kurashi”)
- Personifikatsiya – “The night speaks” (“Tun gapiradi”)

## TAHLIL

Haqiqiy badiiy matnlar yashirgan ma’no hamda ularning talqin qilinishini yetarlicha tushunish uchun avvalo ko’plab adabiy tahlillar talab etiladi. Quyida ana shunday tahlillardan namunalar keltiramiz.

| Semantik tahlil | Interpretatsiya |
|---|---|
| “Big Brother is watching you” (“1984” | G.Orwell) |
| “Big Brother” → hokimiyat ramzi | Totalitar nazorat |
| “watching” → nazorat, qo‘rquv | Shaxs erkinligining yo’qolishi |
| “He was rowing slowly” (“The Old Man | and the Sea” E.Hemmingway) |
| “rowing slowly” → “sekin eshkak eshmoq | Insonning hayotdagi kurashi, qat’iyati |
| “Fog everywhere” (“Great | Expectataions Ch.Dickens) |
| “fog” → tuman, tabiiy hodisa | Noaniqlik, ijtimoiy chalkashlik |

***1-jadval.***

Badiiy matndagi ma’noni interpretatasiya qilishda turli omillar o’z ta’sirini ko’rsatadi. Masalan, kontekst matn tasvirlagan voqeani tarixiy va ijtimoiy fonini tasvirlashga hissa qo’shadi. Shuningdek, matnni o’qiyotgan o’quvchining tajribasi ham

matndagi ma’noni subyektiv talqin qilishga yordam beradi. Madaniyat adabiy matndagi ramzlarni tushunishda muhim rol o’ynaydi.

## MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnda ma’no ko‘p qatlamli bo‘lib, u lingvistik va stilistik vositalar yordamida shakllanadi. Bu G.Leech (2008) nazariyasini tasdiqlaydi [1]. Shuningdek, interpretatsiya jarayoni o‘quvchining individual tajribasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu H.G.Widdowson (1975) qarashlariga mos keladi [4]. Mazkur tadqiqotimizning farqli jihati shundaki, unda semantika va interpretatsiyani yagona tizim sifatida ko‘rib chiqdik.

## XULOSA

Autentik ingliz badiiy matnlarida ma’no va talqin mexanizmlari o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi va matndan ko’zlangan ma’noni yetkazib beradi. Stilistik vositalar ma’no yaratishda asosiy rol o‘ynaydi, interpretatsiya esa bu ma’noni ochib beradi. Maqolada keltirilgan tahlillar filologiya va chet tili pedagogikasi sohasida matn tahlilining yangi yondashuvlarini rivojlantirishga o’z hissasini qo’shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Leech, G. (2008). *Language in Literature*.
2. Simpson, P. (2004). *Stylistics*.
3. Halliday, M.A.K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar*.
4. Widdowson, H.G. (1975). *Stylistics and the Teaching of Literature*.
5. Carter, R. (2010). *Language and Literature*.
6. Jakobson, R. (1960). Linguistics and Poetics.
7. Fish, S. (1980). Is There a Text in This Class?
8. E.Hemmingway. The Old Man and The Sea. 1952
9. George Orwell. 1984. 1949
10. Charles Dickens. Great Expectations.1861